

## DORIVOR O'SIMLIKLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Bo'ston Mamatqulova, Sayxal Narbayeva**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti akademik litseyi*

**Kirish.** Dorivor o'simliklardan foydalanishda har bir vosita xoh u tabiiy bo'lsin xoh tibbiy, organizmning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda har bir organizmga ta'sir spektri boshqacha namoyon bo'lishini e'tiborga olish lozim. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi va hukumatimizning qarorlari, shular asosida belgilangan choralar tabiatni, xususan dorivor o'simliklarni muhofaza qilish ishini yaxshilashga sabab bo'lmoqda.

**Asosiy qism.** Shifobaxsh o'simliklarni muhofaza qilish qonun va qoidalari sathining ko'rinishini, manzarasini, o'simliklar dunyoning turlitumanligini, kam uchraydigan o'simliklarni, ekologik sistema va ularning o'zaro aloqasini hisobga olgan holda atrof-muhitni muhofaza qiladigan joylarni tashkil qilishni ko'zda tutish kerak. Yovvoyi holda o'sadigan shifobaxsh o'simliklar muhofaza qilinar ekan, ulardan to'g'ri foydalanishni bilish kerak. O'rmon mevalarini, qo'ziqorinni, urug'ini, asal beruvchi o'simliklarni qaysi paytda yig'ib olishni bilish, ularning yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Tabiatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish mahaliy xalq deputatlariga topshirilgan. Hamma yerlarda, hudud, tuman xalq deputatlaridan tortib Oliy majlis deputatlari tarkibida atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan tejamkorlik, omilkorlik bilan foydalanish masalalari bilan shug'ullanadigan deputat komissiyasi doimo ishlab turadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun joylarda tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari ishlab turibdi. Bunday jamiyatlar o'z ish faoliyatlarida tabiatni muhofaza qilishni har xil ekskursiyalar, ko'rgazmalar, kinofilmlar, gazeta, jurnallar orqali targ'ibot qiladilar. Jamiyatning va uning birlamchi tashkilotlarining ishi davlat organlari tasdiqlagan kundalik va perspektiv planlar asosida olib boriladi. Jamiyat maktab o'quvchilari o'rtasida ko'klamzorlashtirish, o'rmonlardagi o'simliklarni aniqlash, kartaga tushirish, kam uchraydigan va yo'qolib borayotgan va hayvon turlarining ham o'sish va yashash sharoitlarini o'rganib, hisobga oladilar va muhofaza qiladilar. Ular to'plagan ma'lumotlarini qayta ishlash uchun tabiatning muhofaza qilish jamiyati tashkilotiga toshpiradilar. Tabiatni muhofaza qilish jamiyati atrof-muhitni, tabiatni asrabavaylash qoidalarini buzuvchilarga qarshi kurash olib boradi. Ko'pincha bu qoidalarni buzuvchilar turistlar, ekskursiyaga chiqqanlar, meva va shifobaxsh o'simliklarni tayyorlovchilar bo'lishi mumkin. Shunday turistlar ham bo'ladiki, ular gulxanlarda dorivor o'simliklarni yoqadilar, daraxtlarni kesib, o't o'lanlarni payxon qiladilar, dam olgan erlarini iflos qilib ketadilar. Bundan tashqari, qishloqlar, o'rmon vaturbaza atrofidagi yo'llar borgan sari kengayib ko'payib boradi, shu tufayli o'simliklar borgan sari kamayib, yo'qolib ketishi

mumkin. Bu esa o'rmon kompleksining buzilishiga, tabiat boyligining yo'qolishiga olib kelada.

**Xulosa.** O'simliklar dunyosidagi o'zgarishlar hayvonot olamiga ta'sir qiladi, sayroqi qushlar yo'qolishi, ikkilamchi zararkunandalar pavdo bo'lishi, kemiruvchilar ko'payishi mumkin. Bu esa shu joylarda epidemik jihatdan dahshatli holatga olib kelishi mumkin. Tabiatga mutlaqo zarar yetkazmay, uzoq vaqt dam olish uchun turizmni rejalashtirish va to'g'ri tashkil qilishda katta ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karshibayev X.K., Maxkamov T.X. Dorivor o'simlar biologiyasi va ekologiyasi Guliston., 2022
2. Sanoyev Z.I. Turdiyev P. Q., Alimova N. X., Berdimurodov B. P., Farmakognoziya. Toshkent 2023